

QONUNCHILIKDAGI MEROS HUQUQINING AMALIY JIHATLARI

Yusupov Javoxir Ilyos o‘g‘li

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Mehnat va ijtimoiy munosabatlar

Akdemiyasi “Mehant sohasini boshqarish” fakulteti

Yurisprudensiya yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Tel: +998903367064

javayurist12@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida meros huquqining huquqiy asoslari, ularni tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ularning amaliyotdagi qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, meros huquqi bilan bog‘liq nizolarni hal etish tartibi, notarial amaliyotda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari yoritilgan. Maqolada xorijiy tajribalar asosida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish yo‘llari ham taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: meros huquqi, qonunchilik, vasiyatnoma, vorislik, notarial amaliyot, fuqarolik kodeksi, meros mulki, sud amaliyoti.

Hozirgi davrda xalqaro doirada meros munosabatlari to‘liqligicha yagona moddiy-huquqiy normalardan tashkil topgan xalqaro hujjatlardan iborat bo‘lmagan, barcha xalqlar uchun umumiy qoidalar ishlab chiqilmagan va tartibga solish amalda qiyin bo‘lgan yo‘nalish hisoblanadi. Ya‘ni meros munosabatlari asosan davlatlarning ichki qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Faqatgina ba‘zi masalalar bo‘yicha ko‘p tomonlama konvensiyalar mavjud. Shu sababdan ushbu sohani o‘rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan xalqaro munosabatlarda meros huquqining holati, meros huquqi taraflarining biri, bir qanchasi yoki barchasi chet elda bo‘lsa, shuningdek meros mulki chet mamlakatda joylashganda meros masalasi qanday hal etilishi, kollizion normalarning qo‘llanilishi va istiqbolda merosga oid alohida xalqaro hujjat qabul qilishning imkoniyatlari, turli xil adabiyotlardan, olimlar, soha mutaxassislarining fikrlarini o‘rganib chuqur tahlil qilindi. Olingan ma‘lumotlar va fikrlarga tayanib yechimlar va xulosalar bayon etildi. Meros huquqi har bir davlatning madaniyati, mentaliteti, hayot tarzi, urf-odat va an‘analariga bog‘liqligi sababli, dunyo miqyosida har bir davlat uchun bir xil bo‘lgan huquqiy hujjat ishlab chiqish mushkulligidan kelib chiqib, universal emas, balki mintaqaviy shartnomalar tuzish samarali degan xulosaga kelindi.

Meros huquqi fuqarolik huquqining muhim institutlaridan biri bo‘lib, fuqaroning vafotidan so‘ng uning mulki, majburiyatlari va boshqa huquqiy manfaatlarining vorislarga

o‘tishini tartibga soladi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining IV qismi meros huquqiga bag‘ishlangan bo‘lib, u merosning ochilishi, vorislik turlari, merosni qabul qilish va uni taqsimlash tartibini belgilaydi. Shu jihatdan meros huquqining amaliy qo‘llanilishi nafaqat fuqarolar, balki notariuslar, advokatlar va sud organlari faoliyatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Vorislik huquqi - vafot etgan shaxs meros bo‘yicha huquqlari va majburiyatlarining vorislariga o‘tish tartibini belgilovchi xukuqiy me‘yorlar majmuasi; fuqarolik huquqining bir qismi. Fuqaroning vafotidan keyin vorislarga o‘tadigan mol-mulki meros mulk hisoblanadi. Vorislik vasiyat (qarang Vasiyatnoma) va qonun bo‘yicha amalga oshiriladi. Meros tarkibiga meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo‘lgan, uning o‘limidan keyin ham bekor bo‘lmaydigan barcha huquq va majburiyatlar kiradi. Ammo meros qoldiruvchining shaxsi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan huquq va majburiyatlar, xususan yuridik shaxs hisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a‘zolik, ularda ishtirok etish huquqi; pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlar olish huquqi; mulkiy huquqlar bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy nomulkiy huquqlar meros tarkibiga kirmaydi. Vorislik to‘g‘risidagi bu va b. umumiy qoidalar, jumladan umumiy birgalivdagi mulk bo‘lgan mol-mulkni meros kilib olish, merosning ochilish payti va joyi. merosxo‘r bo‘lishi mumkin bo‘lgan fuqarolar, noloyiq merosxo‘rlarni merosdan chetlatish haqidagi qoidalar O‘zbekiston" Respublikasi FK 1112-1119-moddalarida belgilab berilgan. Meros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (farzandlikka oluvchilar) vafotidan keyin tug‘ilgan bolalari teng ulushlarda qonun bo‘yicha 1-navbatdagi vorislik huquqiga ega bo‘ladilar. O‘zbekiston Respublikasi FK 1136-1141-moddalarida yana 2, 3, 4, 5-navbatdagi vorislik huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar, avlodlar va boshqalar sanab o‘tilgan, qonun bo‘yicha merosxo‘rlar mana shu moddalarda nazarda tutilgan navbat tartibida vorislikka chaqiriladi. Merosdan majburiy ulush olish huquqi, meros olishda er (xotin)ning huquqi, qonun bo‘yicha meros olinganda merosni muhofaza qilish va uni boshqarish haqidagi qoidalar O‘zbekiston Respublikasi FKda (1142—1144-moddalar) belgilangan. O‘zbekiston Respublikasida meros huquqining asosiy manbasi – Fuqarolik kodeksi hisoblanadi. Shuningdek, “Notariat to‘g‘risida”gi Qonun, Vasiyatnomani rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom, va Sud amaliyoti to‘g‘risidagi Plenum qarorlari ushbu sohada muhim normativ asos bo‘lib xizmat qiladi.

Meros ikki yo‘l bilan — vasiyat bo‘yicha va qonun bo‘yicha o‘tadi. Vasiyat bo‘yicha merosda fuqaro o‘z irodasini erkin ifoda etib, merosni kimga va qanday shartlarda qoldirishni belgilaydi. Qonun bo‘yicha meros esa, vasiyatnoma mavjud bo‘lmaganda, qonunda ko‘rsatilgan navbatdagi vorislar o‘rtasida taqsimlanadi.

2. Amaliyotda uchraydigan muammolar

- Amaliyotda ko‘p hollarda quyidagi holatlar kuzatiladi:
- merosni qabul qilish muddati o‘tkazib yuborilishi;
- vasiyatnomalarning shakliy nuqsonlari;
- meros mulkining huquqiy maqomini aniqlashdagi ziddiyatlar;
- bir nechta vorislar o‘rtasida nizolar.

Sud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, merosni qabul qilish muddati o‘tkazib yuborilgan taqdirda, fuqaro “asosli sabab” mavjud bo‘lsa, sud orqali ushbu muddatni tiklash huquqiga ega. Notarial amaliyotda esa meros huquqini tasdiqlovchi guvohnomalami berish jarayonida hujjatlarning to‘liqligi va aniqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Sudlarga tushuntirilsinki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi 257-I sonli Qaroriga muvofiq Fuqarolik kodeksi 1112 — 1157-moddalari qoidalar Kodeks amalga kiritilgunga qadar ochilgan bo‘lib, biroq 1997-yilning 1-martiga qadar vorislardan hech biri tomonidan qabul qilib olinmagan va meros huquqi bo‘yicha davlat yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mulkiga o‘tkazilmagan merosga nisbatan ham tatbiq etiladi. Meros 1997-yilning 1-martiga qadar vorislardan biri tomonidan qabul qilib olingan yoki davlatning yoxud fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mulkiga o‘tkazilgan hollarda kelib chiqqan nizolar 1963-yilgi Fuqarolik kodeksi normalariga muvofiq hal etiladi.

Fuqarolik kodeksining 1113-moddasiga muvofiq meros tarkibiga meros ochilgan paytda meros qoldiruvchiga tegishli bo‘lgan ko‘char va ko‘chmas mulk, ashyolar, shu jumladan, uning o‘limidan keyin ham bekor bo‘lmaydigan barcha mulkiy huquq va majburiyatlar, chunonchi, xususiy mulk huquqi, kredit muassasalarida saqlanayotgan omonatlarga bo‘lgan huquq, dehqon xo‘jaligi yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi (“Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi), yer uchastkasini ijaraga olish huquqi (“Fermar xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasi) va h.k. lar kiradi.

Meros tarkibiga faqat meros qoldiruvchiga qonuniy asoslarda tegishli bo‘lgan mulk kirishi tufayli, o‘zboshimchalik bilan qurilgan yoki tegishli tarzda rasmiylashtirilmagan imoratlar meros tarkibiga faqat marhumning mazkur imoratlarga nisbatan mulk huquqi belgilangan tartibda e’tirof etilgan holda kiritiladi. Meros qoldiruvchi tomonidan tuzilgan oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya va shu kabi bitimlar uning o‘limidan so‘ng haqiqiy emas deb topilganda, qaytarilgan mulk ham meros tarkibiga kiritiladi. Birgalikdagi umumiy mulk ishtirokchisi vafot etgan taqdirda meros uning hissasiga to‘g‘ri keladigan umumiy mol-

mulkka nisbatan, mol-mulkni natura holidi bo'lishning iloji bo'lmaganda esa, bunday ulushning qiymatiga nisbatan ochiladi.⁵⁷

Fuqarolik kodeksining 1112-moddasiga muvofiq vorislik vasiyat va qonun bo'yicha amalga oshiriladi. Vasiyat va qonun bo'yicha vorislar sifatida, jumladan, meros ochilgan paytda hayot bo'lgan shaxslar, shuningdek meros qoldiruvchining hayotligi paytida homila holidi bo'lib, meros ochilgandan so'ng tirik tug'ilgan bolalari bo'lishi mumkin.

Xorijiy tajriba va takomillashtirish yo'nalishlari. Chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, shu jumladan meros munosabatlarida ikki tomonning kelishuvga erishuvi tomonlarning milliy qonunchiligiga bevosita bog'liqdir. Bugungi davrda deyarli barcha mamlakatlar meros munosabatlarini o'z milliy qonunchiligiga binoan hal etadi. Faqatgina ayrim masalalarda, shu jumladan, vasiyatnoma asosida meros qoldirilayotgan hollarni tartibga solish uchun "Vasiyatnoma shakli to'g'risidagi 1961-yil 5-oktabr qonunlar kolliziyasi to'g'risidagi konvensiya" va 1973-yil 26-oktabrda Vashingtonda o'tkazilgan diplomatik konferensiyada xalqaro shartnomaning shakli to'g'risidagi ko'p tomonlama Konvensiya qabul qilingan.⁵⁸

Umuman olganda, meros – bu yaratilgan va avloddan avlodga o'tadigan shaxslar guruhi bilan bog'liq bo'lgan moddiy va nomoddiy elementlardir.⁵⁹

Huquqshunos olimlar B.S.Antimonov va K.A.Grav meros huquqiy munosabatlarini ikki xil deb hisoblaydilar: birinchi hodisa (merosning ochilishi), ikkinchisi – merosxo'rlarning xohishiga ko'ra, merosni qabul qilish bilan vujudga keladi.⁶⁰

I.L. Korneeva esa meros huquqiy munosabatlarini merosni ochish va qabul qilish hamda meros olish bilan bog'liq boshqa harakatlarga oid meros huquqi normalari bilan tartibga solinadigan fuqarolik-mulk huquqiy munosabatlarning bir turi sifatida qaraydi.⁶¹

Shuni aytib o'tish lozimki, meros huquqiy munosabatlarga beriladigan ta'riflar meros munosabatlarining yuzaga kelishini meros qoldiruvchining vafoti kabi yuridik fakt bilan bog'laydi. Ammo bir narsani unutmaslik lozimki, meros qoldiruvchining vafotidan ancha oldin vujudga keladigan va merosni merosxo'rlarga o'tkazadigan vasiyatnoma ham bor va yuqoridagi ta'riflar unchalik ham to'g'ri emas. Ya'ni meros munosabatlari meros qoldiruvchining o'limidan oldin ham vujudga kelishi mumkin. Misol uchun, ko'pgina

⁵⁷ 5-son 20.07.2011 O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining qarori "sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida" 15.05.2024 holatiga ko'ra.

⁵⁸ Богуславский М.М. Международное частное право., Учебник 3-й изд. перераб. и. доп. – М.: Юрист 2000

⁵⁹ Derek Fincham, Assistant Professor, South Texas College of Law; PhD University of Aberdeen; JD Wake Forest

⁶⁰ Антимонов Б. С., Граве К. А. Советское наследственное право. М., 1995. С. 4650.

⁶¹ Корнеева И. Л. Наследственное право Российской Федерации: учеб. для магистров / И.Л. Корнеева. – 3-е изд., перераб и доп. – М.: Юрайт, 2012. – С. 17.

davlatlar qonunchiligida vasiyatnoma yozma shaklda tuzilishi va guvoh yoki guvohlar ishtirokida guvohlantirilishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Yoki bo'lmasam, O'zbekiston Fuqarolik kodeksida vasiyatnomalar notarius ishtirokida notarial tasdiqlanadi yoxud alohida hollarda notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar qo'llaniladi. Yopiq vasiyatnomalar ham notarius ishtirokida o'tkaziladi. Ushbu nuqtayi nazardan olib qaraganda vasiyatnomani tuzish ham yuridik fakt bo'lib, meros ochilgandan keyin uning mazmuniga ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, meros huquqiy munosabatlari mutlaq xarakterga ham ega bo'lishi mumkin. Agarda vasiyatnoma mavjud bo'lmasa, meros qonun bo'yicha merosxo'rlarga o'tadi. Qonun bo'yicha merosxo'rlik masalasi ham har bir davlatda turlicha belgilangan. O'zbekiston qonunchiligiga binoan, agar meros qoldiruvchi o'limidan oldin o'z mol-mulkini vasiyat qilib qoldirmagan bo'lsa, undan qolgan meros mulklari qonun bo'yicha merosxo'rlariga o'tadi.

Xulosa. Meros huquqi fuqarolik muomalasining ajralmas qismi bo'lib, u ijtimoiy adolatni ta'minlash, fuqarolarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston qonunchiligi ushbu sohada yetarlicha mukammal bo'lsa-da, amaliyotda ayrim muammolar mavjud. Ularni bartaraf etish uchun:

meros huquqiga oid notarial va sud amaliyotini raqamlashtirish;

fuqarolarga meros huquqi bo'yicha huquqiy savodxonlikni oshirish dasturlarini ishlab chiqish;

vasiyatnomalarni elektron shaklda rasmiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Shuningdek, FKning 1119-moddasi uchinchi qismida quyidagi shaxslar ham qonun bo'yicha vorislik huquqiga ega emasliklari nazarda tutilgan:

- bolalariga nisbatan ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan va meros ochilgan paytda bu huquqlari tiklanmagan ota-onalar ana shu bolalardan qolgan mulkka;

- meros qoldiruvchiga ta'minlab turish yuzasidan qonunga ko'ra zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlagan ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va voyaga yetgan bolalar (farzandlikka olinganlar).

Lekin shuni ta'kidlash lozimki 1120-modda uchinchi qismida keltirilgan merosdan maxrum qilish noloyiq merosxo'r deb topishdan ancha farq qiladi. Vasiyat orqali boshqa merosxo'rlarni merosdan maxrum qilish masalasida, agarda meros qoldiruvchi shaxs vasiyat qilib qoldirgan bo'lsa shu mulkka nisbatan merosni maxrum qiladigan bo'lsa merosdan maxrum qilingan shaxslarga hech bo'lmaganda shu merosning 1/10 ulushi lekin 3/10 ulushidan oshiq bo'lmagan holda, agar meros natura shaklida bo'lib uni bo'lish imkoniyati bo'lmaganda shu mulkki umumiy summasidan kelib chiqib yuqiruda ko'rsatilgan ulushlarda vasiyat olgan shaxs berish yoki to'lash qobiliyati vujudga kelsa to'lab berish majburiyatini olishi qonunchilikda o'z aksinin topishi o'rinli deb hisoblayman.

Ushbu chora-tadbirlar meros huquqining amaliy samaradorligini oshirib, fuqarolarning qonuniy huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Mulk huquqi va meros huquqining kafolati bo‘yicha moddalar).
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. (V-bo‘lim: Vorislik huquqi, 1112–1157-moddalar, shuningdek, mulk huquqi, bitimlar va majburiyatlar bo‘yicha tegishli moddalar).
3. O‘zbekiston Respublikasining "Notariat to‘g‘risida"gi Qonuni. (Merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma berish tartibi bo‘yicha moddalar).
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori. Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo‘llanilishi to‘g‘risida. (Amaliyotdagi nizolarni hal etish bo‘yicha tushuntirishlar).
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va yo‘riqnomalari. (Meros mulkini baholash, notarial harakatlarni amalga oshirishga oid hujjatlar).

II. O‘quv va Nazariy Adabiyotlar (Darslik, monografiya, o‘quv qo‘llanmalar)

1. Topildiyev, V.R. Fuqarolik huquqi: milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun uslubiy qo‘llanma / Topildiyev V.R., Jamolov N.K.; mas’ul muharrir O.Oqyulov. - Toshkent: MUMTOZ SO ‘Z, 2014. - 192 b.
2. Богуславский М.М. Международное частное право., Учебник 3-й изд. перераб. и доп. – М.: Юристь 2000
9. Derek Fincham. Assistant Professor, South Texas College of Law; PhD University of Aberden; JD Wake Forest